

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”
institut rektori, qabul
komissiyasi raisi

M.Po‘latov

2026 y.

**LOGISTIKA O‘RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA’LIM
MUTAXASSISLIGI BO‘YICHA BITIRUVCHILAR
UCHUN SUHBAT SAVOLLARI**

Tuzuvchilar: prof., PhD

D.H.Xolmamatov, dots., i.f.n. N.Babayev

Suhbat savollari “Logistika” kafedrasining
2026-yil ____dagi ____-sonli yig‘ilishida
muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Kafedra mudiri  **S.K. Boyjigitov**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI



**“TASDIQLAYMAN”
institut rektori, qabul
komissiyasi raisi**

M.Po‘latov


“ _ ” - _ 2026 y.

**LOGISTIKA O‘RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA’LIM
MUTAXASSISLIGI BO‘YICHA BITIRUVCHILAR
UCHUN SUHBAT SAVOLLARI**

Tuzuvchilar: prof., PhD

D.H.Xolmamatov, dots., i.f.n. N.Babayev

Suhbat savollari “Logistika” kafedrasining
2026-yil ____dagi ____-sonli yig‘ilishida
muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Kafedra mudiri  **D.H.Xolmamatov**

Logistika o'rta maxsus professional ta'lim mutaxassisligi bo'yicha bitiruvchilar uchun suhbat savollari:

I. Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish

1. "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan "O'zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish" maqsadining mazmunini tushuntirib bering.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvarda "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-28-son qarorining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvarda "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-28-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish" Konsepsiyasining mohiyatini tushuntirib bering.
4. Mamlakatimizda transport-logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini yanada rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
5. Mamlakatning tranzit salohiyatini oshirish va istiqbolli transport yo'laklarini shakllantirishda logistika xizmatining o'rni.
6. Multimodal tamoyilni maksimal darajada amalga oshirish imkonini beruvchi logistika xizmatlari bozorini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
7. 3PL va undan yuqori formatda xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan yirik milliy transport operatorlari tashkil etilish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
8. Mamlakat tranzit salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarish, moslashuvchan tarif siyosatini qo'llash va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
9. Hududlarda yuklar shakllanishining asosiy nuqtalarini hisobga olgan holda transport-logistika markazlarining zamonaviy tarmog'ini shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.
10. Avtomobil, temir yo'l va havo transportida xalqaro yuk tashish umumiy hajmini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.
11. Transport va logistika xizmatlari eksportini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.
12. Barcha transport turlarida yillik tranzit yuk tashish hajmini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.
13. Konteynerlarda yuk tashish ulushini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

14. Jahon bankining Logistika samaradorligi indeksida (LPI) O'zbekiston Respublikasining o'rni oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

15. "O'zbekiston – Qirg'iziston – Xitoy" va "O'zbekiston – Afg'oniston – Pokiston" yo'nalishlarida yuk tashishlar hajmini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

16. "O'zbekiston – Qirg'iziston – Xitoy" temir yo'l liniyasini qurish loyihasini amalga oshirishning ahamiyatini tushuntirib bering.

17. "O'zbekiston – Afg'oniston – Pokiston" temir yo'l liniyasini qurish loyihasini amalga oshirishning ahamiyatini tushuntirib bering.

18. "Samarqand-Urgut" (46 km) temir yo'l liniyasini ishga tushurilishining ahamiyatini tushuntirib bering.

19. "Miskin-Nukus" (196 km) temir yo'l liniyasini qurish loyihasini amalga oshirishning ahamiyatini tushuntirib bering.

20. Toshkent va Navoiy aeroportlarini xalqaro aviaxabga aylantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmunini tushuntirib bering.

21. Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida yuk tashish bilan bog'liq tartib-taomillarni uyg'unlashtirish maqsadida Temir yo'l idoralari kengashini tashkil etish tashabbusining ahamiyatini tushuntirib bering.

22. Transport-logistika sohasida "aniq vaqt" va "eshikdan eshikkacha" tamoyili asosida ishlovchi, bojxona, transport, omborxona va informatsion logistika sohasida to'liq kompleks xizmatlarni ko'rsatish imkoniyatlariga ega logistika korxonalarini rivojlantirishning ahamiyatini tushuntirib bering.

23. Mahalliy xom ashyo resurslarni chuqur qayta ishlashni tashkil etishda logistikaning o'ri.

24. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

25. "Yangi O'zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti" g'oyasining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.

26. Innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

27. Hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

28. Transport sohasida tashqi savdo uchun "yashil koridorlar" hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

29. Eksport-import operatsiyalari qiymatida transport xarajatlarini kamaytirish hamda tashqi bozorlarga yuklarni yetkazib berish muddatlarini qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

30. O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan maqsad va vazifalar.

31. Xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisobiga tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiyalashning ahamiyatini tushuntirib bering.

32. Xalqaro axborot tizimlari bilan integratsiya qilgan holda O'zbekistonning logistika tizimi platformalarini shakllantirishning ahamiyatini tushuntiring.

33. Xalqaro yuk tashishlarda raqamli va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

34. Logistika sohasida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

35. Havo yo'llarda yuk tashishni oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

36. "Yevropa – Kavkaz – Osiyo" transport koridori (TRASEKA)da O'zbekistonning o'rnini.

37. Mamlakatda transport-logistika tizimini jadal rivojlantirish, transport infratuzilmasini yaxshilashga investitsiyalarni jalb qilish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

38. Toshkent – Samarqand, Samarqand – Navoiy – Buxoro yo'nalishlarida yangi tezyurar temiryo'llarini qurish, tezyurar poyezdlarda yo'lovchi tashish sonini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

39. Toshkent – Samarqand va Toshkent — Farg'ona vodiysi yo'nalishlarida davlat-xususiy sheriklik asosida avtomobil yo'llarini qurish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

40. Respublika hududlarida savdo va yo'lbo'yi xizmatlarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

41. Zamonaviy bozorlar va savdo komplekslari, shuningdek, yo'lbo'yi infratuzilmasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

42. Hududlarda aholining yashash sharoitini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosatini yanada takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

43. Shaharlarni raqamlashtirish, qurilish va loyihalashtirish ishlari sifatini oshirish va «Aqlli shahar» konsepsiyasining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.

44. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish uchun transport-logistika tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

45. Kambag'allikni qisqartirish borasida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

46. Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

47. Tovar va moliya bozorlarida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

48. Tovar va moliya bozorlarida raqobatni rivojlantirish borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

49. Respublika tovar-xom ashyo birjasi faoliyatini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

50. Birjaga olib chiqiladigan mahsulotlar turini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

51. Mahalliy mahsulotlar eksportini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

52. Xorijiy brendlarni va yirik kompaniyalarni mahalliy korxonalar bilan hamkorlik qilishini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

53. O'zbekistonning global logistika tizimlariga integrasiyasida Eronning Bandar-Abbos va Chobahor portlarining o'rni.

54. O'zbekiston-Qozoqiston o'rtasida yuk tashish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

55. O'zbekiston-Qirg'iz Respublikasi o'rtasida yuk tashish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

56. O'zbekiston-Turkmaniston o'rtasida yuk tashish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

57. O'zbekiston-Tojikiston o'rtasida yuk tashish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

58. O'zbekiston-Ozarbayjon o'rtasida yuk tashish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

59. O'zbekiston-Gruziya o'rtasida yuk tashish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

60. O'zbekiston-Pokiston o'rtasida yuk tashish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

61. O'zbekiston-Afg'oniston o'rtasida yuk tashish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

62. O'zbekistonning Sloveniyaning "Koper" porti salohiyatidan Yevropa Ittifoqi bozoriga chiqish uchun logistika xabi sifatida foydalanish imkoniyatlari.

63. O'zbekiston va Mo'g'uliston o'rtasida transport-logistika sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

64. Trans-Afg'on temir yo'lini qurish O'zbekistonning transport-logistika sohasidagi strategik lohiya ekanligini tushuntirib bering.

65. Transport va tranzit sohasida O'rta transport koridoridagi asosiy muammolar va O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sirini tushuntirib bering.

II. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish)

1. Logistika sohasi kasbini tanlashingizdan asosiy maqsad nima?
2. Logistika sohasining mamlakat iqtisodiyoti va jamiyat rivojlanishidagi ahamiyatini tushuntirib bering.
3. Logistika kasbi boshqa kasblardan nimasi bilan ajralib turadi?
4. Logistika kasb egasi qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak?
5. Logistika kasb egasining kasbiy etikasi nimalardan iborat?
6. Aholi farovonligi va hayot sifatini maksimal ko'tarishda logistikani o'rni va ahamiyati nimadan iborat?
7. Sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'yishda logistikani o'rni va ahamiyati nimadan iborat.
8. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishda logistikani o'rni va ahamiyati nimadan iborat.
9. Bandlikka, mehnat bozoriga ijobiy ta'sir ko'rsatishda logistikani o'rni va ahamiyati nimadan iborat.
10. Ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlashda logistikani o'rni va ahamiyati nimadan iborat.
11. Mahalliy korxonalarimizning raqobatbardoshligini oshirishda logistikani o'rni va ahamiyati nimadan iborat.
12. Logistika kasb egalarining korxonalardagi asosiy funksiyasi nimadan iborat.
13. Logistika kasb egasining asosiy majburiyatlari nimalardan iborat.
14. Logistika kasb egasi iste'molchilar huquqlarini himoya qilishda qanday o'ringa va ahamiyatga ega?
15. Logistika kasbiga bo'lgan qiziqishlaringizni beshta asosiy dalillar bilan izohlab bering.
16. Sizni logistika kasbini tanlashga undagan asosiy sabablar nimadan iborat.
17. Siz nima uchun aynan logistika kasbini tanladingiz? Javobingizni aniq dalillar asosida bayon qiling.
18. Bugungi kunda yoshlar o'rtasida logistika kasbiga qiziqish ortmoqdam yoki qiziqish yo'qmi?
19. Logistika kasbini tanlashda nimalarga e'tibor qaratish kerak?
20. Logistika kasb egalari qanday bilim va fazilatlarga ega bo'lishi kerak?
21. Mamlakatimizda logistika kasbi rivojlanib bormoqda deb hisoblaysizmi? Javobingizni aniq dalillar asosida bayon qiling.
22. Logistika kasbiga bo'lgan qiziqishlaringizni asosiy sabablarini aytib bering.
23. U yoki bu kasbni tanlashda nimaga e'tibor berish kerak deb o'ylaysiz?
24. O'zingizda logistika kasbiga moyillik va qiziqish yuqori ekanligini nima bilan asoslab berasiz?
25. Mamlakatimizda logistika kasbining istiqbolini qanday tasavvur qilasiz?
26. Logistika kasbini tanlash qaroriga kelishingizga nima sabab bo'ldi?
27. Logistika kasbini tanlash qarorini mustaqil o'zingiz qabul qilindingizmi yoki boshqa kishilar tavsiyasi asosida tanladingizmi?
28. Logistika kasb sohasi haqida asosiy ma'lumotlarni qayerdan oldingiz?

29. Logistika kasbini tanlashdagi asosiy istaklaringiz va maqsadlaringiz nimadan iborat?

30. Logistika kasbi sizning imkoniyatlaringiz, qiziqishlaringiz va qobiliyatlaringizga mos keladimi?

31. Kasb tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak deb o'ylaysiz?

32. Logistika kasbini tanlashdagi asosiy motivlaringiz nimalardan iborat?

33. Logistika kasbini tanlashdagi moddiy va ma'naviy motivlaringiz nimalardan iborat?

34. Qaysi motivlar asosida siz logistika kasbini tanladingiz?

35. Kelajakda logistika sohasida qanday muvaffaqiyatlarga erishishni rejalashtirmoqdasiz?

36. Iste'molchilarni chalg'itish va moda hukumronligi logistika kasb etikasiga to'g'ri keladimi? Javobingizni aniq dalillar asosida bayon qiling.

37. Logistika kasb egalari mijozlar bilan ishlashda nimaga e'tibor berishi kerak?

38. Logistika kasb egasi doimiy mijozlar bilan ishlashda nimalarga e'tibor berishi kerak?

39. Raqobatchilarni o'rganishda logistika kasb egasi qanday etika qoidalariga rioya qilishi lozim?

40. Iste'molchilar xaq-huquqlari himoyasida logistika kasbining tutgan o'rni.

41. Logistika kasb faoliyati rivojlanishiga to'siq bo'luvchi omillarni tushuntirib bering.

42. Logistika kasbining asosiy ob'ektlarini tushuntirib bering.

43. Logistika kasbiga bo'lgan qiziqishingizni ustun jihatlarini tushuntirib bering.

44. Logistika kasbi bilan bog'liq ma'naviy qadriyat tizimini tushuntirib bering.

45. Logistika xizmati xodimlariga qo'yiladigan talablarni tushuntirib bering.

46. Sotish va reklama ishlari bo'yicha menejerlarga qo'yiladigan talablarni tushuntirib bering.

47. Logistika qarorlari ijrosini nazorat qilishni tushuntirib bering.

48. Haridorlar e'tirozlarini qabul qilish va bartaraf etishda logistika kasbiy faoliyatining vazifalarini tushuntirib bering.

49. Ta'minotchilar va vositachilar bilan tijorat aloqalarini o'rnatishda logistika kasbiy faoliyatining vazifalarini tushuntirib bering.

50. Xorijiy sheriklar bilan tijorat aloqalarini o'rnatishda logistika kasbiy faoliyatining vazifalarini tushuntirib bering.

51. Logistika mutaxassisining kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarni tushuntirib bering.

52. Logistika bilan bog'liq yangiliklar yoki texnologiyalarni kuzatib borasizmi? Misol keltiring.

53. Logistika sohasi orqali jamiyatga qanday foyda keltirmoqchisiz?

54. Siz uchun "muvaffaqiyatli logist" deganda qanday inson ko'z oldingizga keladi?

55. Logistika sohasi bilan bog'liq qanday real muammolarni bilasiz va ularga qanday yechim topish mumkin?

56. Logistika sohasida faoliyat yuritayotgan biror kishiga havas qilasizmi? Nega aynan unga?

57. Kasbiy maqsadlaringizga erishishda logistika ta'limi sizga qanday zamin yaratadi, deb o'ylaysiz?

58. Logistika sohasidagi texnologik yangiliklardan xabardormisiz?

59. Logistika sohasida ishlashni tanlashingizga ota-ona, do'stlar yoki ustozlar ta'sir ko'rsatdimi?

60. Sizningcha, logistikaning qanday yo'nalishlari bor va siz qaysi yo'nalishga qiziqasiz?

61. Logistika sohasi qaysi sohalar bilan chambarchas bog'liq deb o'ylaysiz? Yaxshi logistika sohasi mutaxassisi bo'lishingiz uchun qaysi soha bilimlarini mukammal egalashingiz kerak?

62. Transport turlari va ular orqali yuk tashishga bo'lgan qiziqishlaringizni bayon qilib bering.

63. Temir yo'l transporti oqrali yuk tashishga bo'lgan qiziqishlaringizni bayon qilib bering.

64. Havo transporti oqrali yuk tashishga bo'lgan qiziqishlaringizni bayon qilib bering.

65. Xalqaro yuk tashishlarga bo'lgan qiziqishlaringizni bayon qilib bering.

III. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari)

1. Logistika kasb egasi uchun hissiy intellekt nima?
2. Logistika kasb egasi uchun kreativlik nima?
3. Tovarga bo'lgan talab pasayib ketganda logistika kasb egalari qanday qarorlar qabul qiladi.
4. Nimaga asoslanib narxlarni pasaytirish yoki oshirish bo'yicha qaror qabul qilinadi.
5. Iste'molchilarni jalb qilish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaysiz?
6. Logistika kasb egasi uchun tashabbuskorlik va xushmuomilalik muhimligini tushuntirib bering.
7. Biznes yurituvchi subyektlarda logistika kasb egalarining shaxsiy yutuqlari mavjudligi qanchalar muhim?
8. Logistika kasb egalari uchun qanday kasbiy fazilatlar maqsadga erishishga yordam beradi?
9. Doimiy iste'molchilar sonini oshirib borish uchun korxonalar nimaga e'tibor qaratishi lozim.
10. Logistika mutaxassisi sifatida korxonalarga sotish hajmini oshirish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirishni tavsiya etasiz.
11. Logistika jamoa a'zolarining mehnatga va rahbarlarga bo'lgan munosabati.
12. Logistika bo'limi jamoasida ishlarni taqsimlash va munosabatlarni o'rnatilishi.
13. Logistika xodimlari qo'nimsizligi va ularni yuzga keltiruvchi omillarni tushuntirib bering.
14. Logistika mehnat jamoasi a'zolarining ma'naviy va jismoniy ravnaqi haqida tushuncha bering?
15. Tovarlarni sotish usullarini takomillashtirish bo'yicha qanday tadbirlarni amalga oshirish lozim.
16. U yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish zaruriyatini asoslash uchun nima qilish kerak.
17. Logistika bo'limi jamoasida qanday nizolar kelib chiqishi mumkin?
18. Logistika faoliyatiga oid nizolarni qanday bartaraf etish mumkin?
19. Logistika bo'limi boshlig'iga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
20. Logistika bo'limi xodimlari qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak?
21. Logistika sohasida o'z kasbini ustasi bo'lishga erishish uchun nimalar qilish kerak?
22. Logistika kasb egalarining ishga bo'lgan layoqati nimalarda namoyon bo'ladi?
23. Kasbiy shakllanish nima? Logistika kasb egalarining kasbiy shakllanishida qanday omillar muhim ahamiyatga ega?

24. "Inson-kasb-ishlab chiqarish muxiti" tizimi va unda logistika kasb egalarining tutgan o'rnini.
25. Logistika xizmati rahbarining madaniyati deganda nimani tushunasiz?
26. O'ziga, jamoaga nisbatan rahbar madaniyati nimalarda namoyon bo'ladi?
27. Xodimlarni qabul qilish madaniyati bilan tanishmisiz?
28. Muammo muhokamasida logistika xizmati rahbari o'zini qanday tutishi kerak?
29. Sizning davlat va jamiyat oldidagi muqaddas burchingiz nimalardan iborat?
30. Kengash va majlislarni olib borish madaniyatini tushuntiring.
31. Logistika xizmati rahbari mingbarga chiqqanda o'zini qanday tutmog'i lozim?
32. Logistika xizmati xodimlari bozorlarni, iste'molchilarni va raqobatchilarni o'rganishda kasbiy etikada nimalarga e'tibor berishi lozim?
33. Muzokaralarda logistika xizmati rahbari nimalarga e'tibor berishi lozim?
34. Doimiy haridorlar bilan ishlash madaniyatini tushuntirib bering.
35. Inson resurslarini boshqarish deganda nimani tushunasiz.
36. Xodimlarni tanlashda rahbar nimalarga e'tibor qaratishi lozim?
37. Motivlashtirish va ehtiyoj haqida gapirib bering.
38. Boshqaruvda axborot tizimi to'g'risida tushuncha bering.
39. Boshqaruv tizimida ichki kommunikatsiya tushunchasini tushuntirib bering.
40. Boshqaruv tizimida tashqi kommunikatsiya tushunchasini tushuntirib bering.
41. Qaror qabul qilishda muammoni kelib chiqishini baholash.
42. Qaror qabul qilishda mavjud muammoni bartaraf etish yo'llarini tushuntirib bering.
43. Qarorlarni qayta ishlash usuli va javobgarlik tushunchasini tushuntirib bering.
44. Logistika sohasida kasbiy bilim va tajriba tushunchasi.
45. Logistika kasb egasining tashkilotchilik qobiliyati va tajribasini tushuntirib bering.
46. Tashqi ko'rinishi va o'zini tuta bilish tushunchasi.
47. Murakkab vaziyatga tezkor moslasha olish qobiliyati tushunchasi.
48. Logistika sohasida tezkor va aniq qarorlar qabul qilish kerak bo'ladi. Bunday vaziyatlarda o'zingizni qanday tutasiz?
49. Buyurtmalarni o'z vaqtida yetkazish talab etilganda siz qanday rejalashtirish usulidan foydalanasiz?
50. Agar yetkazib berishda muammo yuzaga kelsa, siz uni qanday hal qilgan bo'ladingiz?
51. Sizga yuklarni omborlarda to'g'ri saqlash va joylashtirish vazifasi topshirilsa, qaysi tamoyillarga amal qilasiz?
52. Bir vaqtning o'zida bir nechta logistika jarayonlarini boshqarish kerak bo'lsa, ularni qanday ustuvorlashtirasiz?

53. Logistika sohasida intizom va aniqlik muhim. Bu ikki fazilat sizda qanchalik rivojlangan? Misollar bilan tushuntiring.

54. Sizningcha, logist sifatida mijozlar bilan samarali muloqot qilish uchun qanday shaxsiy fazilatlar zarur?

55. Logistika jarayonlarida jamoaviy ishlash talab etiladi. Bunday muhitda o'zingizni qanday his qilasiz?

56. Yangi logistika texnologiyalarini o'rganishga qiziqasizmi?

57. Logistika tizimidagi uzilishlarda qanday yechim topardingiz?

58. Logistika sohasida tezda hal qilish kerak bo'lgan vaziyatlarga qanday munosabatdasiz? Stressga bardoshlimisiz?

59. Logistika jarayonlarida noaniqlik va kechikishlar bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda muammoga qanday yondashasiz?

60. Siz uchun "mas'uliyatli xatti-harakat" nimani anglatadi va bu qanday qilib logistika ishida namoyon bo'ladi?

IV. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi

1. Logistika tushunchasi, maqsad va vazifalari (logistika, logistikaning obyekti, logistik tizimlar, saqlash, yetkazib berish, buyurtma).

2. Logistikaning obyekti, subyekt iva rivojlanish bosqichlari (logistika, tovar-moddiy resurslar, moliyaviy va axborot resurslar).

3. Logistikaning asosiy tushunchalari va ta'riflari (oqim, tizim, moddiy oqim, moliyaviy oqim, axborot oqim).

4. Logistikaning maqsadlari, funksional sohalari, ularning tavsifi va yo'nalishlari ("maqsadlar daraxti", ta'minot logistikasi, ishlab chiqarish logistikasi, taqsimot logistikasi).

5. Logistikaning konsepsiyasi, prinsiplari va vazifalari (logistikaning konsepsiyasi, taqsimot tizimi logistikasining maqsadi, ta'minot tizimi logistikasining maqsadi, logistikaning asosiy vazifalari).

6. Logistikaning marketing va boshqa iqtisodiy soha fanlari bilan o'zaro aloqadorligi (logistika, marketing funksiyalari, logistika va marketingning asosiy obyektlari, statistika, ekonometrik modellashtirish fanlari bilan bog'liqligi).

7. XX asr logistikasi rivojlanishining xronologik jihatlari (logistikaning rivojlanish tarixi, 1990 yillargacha bo'lgan davr, 2000 yillardan boshlab logistikaning rivojlanishi).

8. Logistikaning biznes faoliyati bilan bog'liqligi, uning biznesni rivojlantirish bilan funksional bog'liqligi (biznes subyekti tuzilmasining tarkibiy elementi, mustaqil biznes subyekti shakli, ta'minot funksiyasi, ishlab chiqarish funksiyasi, taqsimot funksiyasi).

9. Logistik tizim tushunchasi, logistik tizimlarning tashkiliy-iqtisodiy va texnik-texnologik mohiyati (tizim, element, tizim funksiyasi, tizim tarkibi, tashkillashtirish, logistik tizim).

10. Logistik operatsiyalar va ularning tarkibiy qismlari (moliyaviy oqimlar bo'yicha bajariladigan operatsiyalar, axborot oqimlar bo'yicha bajariladigan operatsiyalar, moddiy oqimlar bo'yicha bajariladigan operatsiyalar).

11. Logistik operatsiyalar, funksiyalar va logistik zanjir tushuntalarini tushuntirib bering (moddiy, moliyaviy va axborot oqimlari bo'yicha bajariladigan operatsiyalar, logistik funksiyalar, logistik zanjir).

12. Rivojlangan davlatlarda qo'llaniladigan logistik konsepsiyalar (JIT(Just-in-time) konsepsiyasi, MRP konsepsiyasi).

13. Logistik strategiya va uning turlari (biznes sohalar bo'yicha strategiyalar, logistik funksiya va operatsiyalar bo'yicha strategiyalar).

14. Oqim tushunchasi va uning asosiy ko'rsatkichlari (oqim ta'rifi, moddiy oqim, moliyaviy oqim, axborot oqim).

15. Moddiy oqim tushunchasi va ularning turlari (xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor mahsulotlar).

16. Logistik tizimda logistik zanjirlarni ajratishning mohiyati (tizim, logistik tizim, logistika tizimlarning asosiy elementlari, logistik zanjir).

17. Logistik zanjirda ishtirok etuvchi bo'g'inlar (logistik zanjir, ta'minot bo'g'ini, ishlab chiqarish bo'g'ini, taqsimot bo'g'ini).

18. Logistik harajatlar tarkibi (ta'minot bo'g'inidagi logistik funksiyalar uchun bo'ladigan harajatlar, taqsimot bo'g'inidagi logistik funksiyalar uchun bo'ladigan harajatlar, ishlab chiqarish jarayonidagi logistik funksiyalar uchun bo'ladigan harajatlar).

19. Oqim jarayoni, turlari, ularning harakat sxemalari (oqim, oqimning hajmi, oqimning boshlang'ich, oraliq va oxirgi punkiti).

20. Oqim turlari va ularning harakatlanish sxemalari (oqim, oqimning hajmi, oqimning boshlang'ich, oraliq va oxirgi punkiti).

21. Zaxira tushunchasi va uning asosiy ko'rsatkichlari (zaxira, zaxiraning statik miqdori, oqim va zaxira, uzluksiz oqim, diskret oqim).

22. Zaxira miqdori bilan oqim dinamikasi o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirib bering (zaxira, oqim, zaxiraning statik holati, stasionar oqim, nostatsionar oqim).

23. Ta'minot logistikasi va uning mazmuni (ta'minot, yetkazib berish, buyurtma, saqlash)

24. Ombor logistikasi va uning mazmuni (ombor, ombor turlari, saqlash, ombor xarajatlari).

25. Moliyaviy oqimlar va uning mazmuni (moliyaviy oqim, bank, pul ko'chirishlar, moliyaviy oqim bo'yicha bajariladigan logistik operatsiyalar).

26. Axborot oqimlar va uning mazmuni (axborot oqim, axborot oqimlar bo'yicha bajariladigan logistik operatsiyalar).

27. Ishlab chiqarish jarayoni logistikasining mohiyati (ishlab chiqarishning sikllik jarayoni, yetkazib berish bo'g'inlari, texnologik bo'g'inlar, ichki tashish, ombor operatsiyalari).

28. Ishlab chiqarish korxonalari tashkiliy tuzilmasida logistik xizmatning o'rni va ahamiyati (ishlab chiqarish logistikasining funksiyalari, logistik tizimni shakllantirish, logistik tizim strategiyasini aniqlash, logistik bo'limining asosiy funksiyalari).

29. Ishlab chiqarish jarayonida moddiy oqimni logistik boshqarish variantlari ("siljituvchi tizim" variant, "tortuvchi tizim" variant, yetkazib berish jarayoni, logistik zanjir).

30. Rivojlangan mamlakatlardagi yirik ishlab chiqarish korxonalari amaliyotida foydalanayotgan logistik konsepsiya va mikrologistik tizimlar (JIT(Just-in-time) konsepsiyasi, MRP konsepsiyasi, Kanban mikrologistik tizim).

31. Strategiya, strategik rejalashtirish tushunchalari va ularni ishlab chiqarish asoslari (strategiya, rejalashtirish, strategik reja, strategik qarorlar, taktik qarorlar, missiya, biznes strategiya).

32. Strategik rejalashtirish va prognozlashning o'zaro aloqadorligi va bir biridan farqi (prognozlash, prognozlash modellari, prognozlashda xatoliklar, dispersiya, ekstrapolyasiya).

33. Strategik rejalashtirish va prognozlashning asosiy ko'rsatkichlari (moddiy oqim hajmini prognozlash, talabni prognozlash, prognozlashda xatolik).

34. Logistik strategiya va uning turlari (logistik strategiya, "tor" strategiya, dinamik strategiya, funksional strategiya, biznes strategiya).

35. Logistik strategiyani ishlab chiqish asoslari (strategik qarorlar, taktik qarorlar, operativ qarorlar, missiya, korporativ strategiya, logistik strategiyani ishlab chiqish).

36. Moddiy oqim hajmini prognozlash usullari (moddiy oqim hajmini prognozlash, talabni prognozlash, Ferxyuls tenglamasi, ekstrapoliyasiya).

37. Transport logistikasining mohiyati (transport vositalaridan foydalanish ko'lam, transport logistikasining vazifalari, tashishda transport vositalarini turlari).

38. Moddiy oqimni tashishni tashkil etish va boshqarishdagi muammolar (transport siyosati, ombor joylashuvi, yetkazib berish grafigiga amal qilish).

39. Moddiy oqimni tashishni tashkil etish va boshqarish modellari (avtomobil transportida mahsulotlarni yetkazib berishda tebranish usuli, xalqa usuli, transport turlarining moddiy texnika bazasi).

40. Transport logistikasi vazifalari va turlari (havo yo'l transporti, temiryo'l transporti, avtomobil transporti, suv transporti, quvur transporti).

41. Tashishda transport turini tanlash omillari va mezonlari (tashish tannarxi, yetkazish muddati, tashishning intensivligi, mahsulot yetkazib berish grafigi, turli yuklarni tashish imkoniyati, transport tariflari).

42. Zaxiralar tushunchasining mohiyati va mazmuni (zaxira, saqlash, oqimning statik holati, zaxira hajmining optimal hajmi, buyurtmalarni boshqarish).

43. Moddiy resurslar zaxirasi turlari (texnologik zaxiralar, joriy zaxiralar, rezerv zaxiralar, tovar zaxiralari, ulgurji va chakana savdo korxonalaridagi zaxiralar).

44. Zaxira yaratish sabablari va muammolari (ishlab chiqarish uzluksizligi, bozor ta'minoti, favqilotda vaziyatlar, zaxira me'yori aniqlash).

45. Omborlar, ularning ta'rifi va turlari (o'lchovlari bo'yicha omborlar, konstruksiyasiga ko'ra omborlar, xizmat ko'rsatish belgisiga ko'ra).

46. Ombor xo'jaligining funksiyalari (saqlash, mijoz talabini qondirish, buyurtmalarga mos assortimentni yaratish, transport vositasining tashish potensialidan foydalanish).

47. Ombor logistikasida yuk birligi tushunchasi va ombor parametrlarini aniqlash (yuk birligi, yuk birligi o'lchovlari, 1 m² asos yuzasiga tushadigan yuk bosimini hisoblash).

48. Zaxira yaratish uchun qilinadigan xarajatlar tarkibi (saqlash xarajatlari, zaxiralarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar, ombor xarajatlari, xatar bilan bog'liq xarajatlar).

49. Logistika tizimda zaxiralarni boshqarish va tovar siyosati (tovar tushunchasi, tovar va zaxira tushunchalari, zaxiralardan foydalanish samaradorligi, buyurtma).

50. Logistik tizimlarda zaxiralarni boshqarishning zamonaviy modellari (zaxiralarni boshqarishning o'zgarmas hajm modeli, zaxiralarni boshqarishning o'zgarmas davr modeli, zaxiralarni optimal boshqarish modellari).

51. Logistikada axborot oqimlari va ularning o'ziga xosligi (rejali axborotlar, dispozision axborotlar, tezkor axborotlar, mikrodarajadagi axborot tizimlar, makrodarajadagi axborot tizimlar).

52. Xarid jarayonlari logistikasining mohiyati (xarid, tanlash, shartnomalar tuzish, buyurtmalar berish, xarid logistikasi funksiyalari).

53. Korxonalarda xarid-ta'minot xizmati tizimi va uning vazifalari (xarid xizmati, xarid xizmati tizimi, xaridni amalga oshirish bosqichlari, xarid uchun talabnoma, xarid uchun buyurtma).

54. Mahsulot yetkazib beruvchilarni tanlash (mahsulot yetkazib beruvchilarni tanlash usuli, tanlashda ekspert baholash usuli, mahsulot yetkazib beruvchilar bilan ishlash tizimi).

55. Xarid tarkibi va hajmini aniqlash (ishlab chiqarish dasturiga asosan xarid tarkibi va hajmini aniqlash, buyurtmalarni shakllantirish, xarid usulini aniqlash).

56. Servis xizmat logistikasi (servis, servis xizmat turlari, servis xizmatlarini baholash, servis darajasi).

57. Taqsimot jarayonlari logistikasi (fizik taqsimot, distribyusiya, distribyusiya markazlari, "ishlab chiqaruvchi – iste'molchi" yetkazib berish zanjiri).

58. Logistik tizim taqsimot kanallari (nolinchi darajali kanal, birinchi darajali kanal, ikkinchi darajali kanal,)

59. Og'irlik markazini topish asosida taqsimot markazi o'rnini aniqlash ("ishlab chiqaruvchi-iste'molchi" yetkazib berish zanjiri, "ulgurji savdo-iste'molchi" yetkazib berish zanjiri, og'irlik markazi, dislokasiya).

60. Raqamli logistika va uning o'ziga xos xususiyatlar (raqamlashtirish, raqamli ombor (WMS), radiochastotani identifikatsiyalash (RFID)).

Mazkur suhbat savollari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-yanvardagi "Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 17-son qaroriga asosan tayyorlandi.

Suhbat jarayonida bitiruvchilarning har biriga

1) Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish.

2) Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivasiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish).

3) Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari).

4) Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi bo'yicha jami to'rtta savol beriladi.

Har bir variantda 4 tadan savollar mavjud bo'lib, ularning natijalari:

- birinchi savol uchun – 20 ball;
- ikkinchi savol uchun – 15 ball;
- uchinchi savol uchun – 15 ball;
- to'rtinchi savol uchun – 50 ballik tizim bo'yicha baholanadi.

Savollar uchun eng yuqori ball – 100 ballni tashkil etadi. Suhbat natijalari quyidagi mezonlar bo'yicha to'plagan umumiy balli quyidagicha baholanadi.

T/r.	Baho	Xususiy ball
1	A'lo	90,0-100
2	Yaxshi	78,1-89,9
3	Qoniqarli	67,0-78,0
4	Qoniqarsiz	0-66,9